



## O'ZBEK VA OZARBAJON XALQINING SEVIMLI SHOIRI

**Obutjonova Durdona Omonjon qizi**

Toshkent davlat transport universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10885050>

**Annotasiya:** Shayxzoda, badiiy ijodning barcha tur va janrlarida asarlar yozibgina qolmay, adabiyotshunos va tanqidchi sifatida ham samarali ijod qilgan.

**Kalit so'zlar:** asarlar, dramaturg, tanqidchi, adabiyotshunos, iste'dod sohibi, she'rlar, "Toshkentnoma", Forobiy qabristonida dafn etilgan.


Aslida qondosh ozarbayjon naslidan bo'lib, keyinchalik o'zbek xalqining chinakam sevimli shoiri, yozuvchisi, dramaturgi, zabardast olimi sifatida dong taratgan Maqsud Shayxzoda 1908-yili Ozarbayjonning Ganja viloyatiga qarashli Oqtosh shahrida tug'ildi. Otasi Ma'sumbek elu-yurtda katta obro'ga ega shifokor edi.

Shayxzoda she'riy ijodida, asosan, zamonaviy mavzularda qalam tebratdi, dramaturgiyasida esa, tarixiy o'tmishga teran nazar tashlab, undagi zamonaviy muammolarni yoritishga yordam beruvchi siymolar va voqealarga yangi badiiy hayot bag'ishladi. U umrining so'nggi yillarida Beruniy to'g'risida so'nggi sahna asarini yozdi.

Shayxzoda, badiiy ijodning barcha tur va janrlarida asarlar yozibgina qolmay, adabiyotshunos va tanqidchi sifatida ham samarali ijod qilgan. 1941-yildayoq „Genial shoir“ monografiyasini e'lon qilgan Shayxzoda umrining so'nggi kunlariga qadar Navoiy hayoti va ijodi bilan muttasil shug'ullanib keldi.

U Navoiyning 500 yilligi munosabati bilan yozgan „Navoiyning lirik qahramoni haqida“ (1948) maqolasidan keyin „Navoiy lirikasining ba'zi bir poetik usullari haqida“ (1959), „Ustodning san'atxonasida“ (3 qismli maqola, 1965—66), „G'azal mulking sulтони“ (1966), „Tazkirachilik tarixidan“ (1968) singari yirik ilmiy tadqiqotlar yaratib, navoiyshunoslik fanini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqdi.

O'zbek xalq og'zaki ijodining Fozil shoir singari namoyandalari, „Alpomish“, „Shirin bilan Shakar“ kabi asarlari, o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining Bobur, Muqimiy, Furqat, Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, jahon adabiyotining Nizomiy Ganjaviy, Sh. Rustaveli, A.S. Pushkin, N.A. Nekrasov, A.N. Ostrovskiy, T.G. Shevchenko, A.P. Chexov singari namoyandalariga bag'ishlangan asarlar yozdi. Pedagog olim va shoir sifatida esa talaygina shoir, adabiyotshunos va tanqidchilar avlodining yetishib chiqishiga munosib hissa qo'shdi.





1929-yili yosh shoirning o'zbek tilidagi dastlabki she'ri "Sharq haqiqati" gazetasi sahifalarida bosilib chiqadi. Oradan ko'p o'tmay, Shayxzodaning birinchi to'plami "O'n she'r", keyinroq "Undoshlarim" (1933), "Uchinchi kitob" (1934), "Jumhuriyat" (1935) kabi to'plamlari nashr etiladi.

Maqsud Shayxzoda "xalqimizning mehnat qahramonligi, kurash va jang, ozodlik va do'stlik, baxt va alam, yurtning go'zal manzaralari va insonning ma'naviy jamoli mening qalamimga oshno, dilimga mazmun bo'lib keldi" deb ta'kidlagan edi.


Shoirning bu fazilatlari, eng avvalo, hayotdagi, voqelikdagi va odamlarimizning ruhiy olamidagi o'zgarishlar, holatlarni ifodalashga qodir yangi, betakror obrazlarida namoyon bo'ldi. Bu Tarix -Yo'l - Safar - Kema - Karvon, Xarita (yer kurrasi va Vatani), Manzil, Raqam, Sur'at va Vaqt obrazlaridir. Bular bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, insoniyat tarixi yaxlitdir va doim olg'a qarab harakat qiladi, bu insoniyat karvonini - kemani to'xtatib bo'lmaydi, u insoniyat orzusi - baxt-saodat manzili sari harakat qiladi.

Buni Shayxzodaning o'z kitoblariga "O'n besh yillik daftari" yoki "Chorak asr devoni" deb sarlavha qo'yishidan ham bilish mumkin. Shoirning o'zi "Inson umri cheklangan muhlatli daftar", demak bu daftarni foydali, ezgu ishlar - "yozuvlar" bilan to'ldirish lozim deydi. "Raqamlar" she'rida esa shunday satrlar bor: "Men na munajjimman va na hisobdon va lekin ko'raman sonlar mag'zida osmoncha ma'nolar, yurtni obodon"...

"Qo'llar" she'rida qo'llarda insonning borlig'ini, uning ichki olamining muhrini ko'radi. Uningcha, "g'oyat shafqatli, hayotbaxsh qo'llar" ham "ayovsiz, yovuz, go'r kabi sovuq, tanbal" qo'llar ham bor, qisqasi, har bir qo'l "yurakning navkarlaridir", yurak neni buyursa, qo'l shuni ijro etadi.

Maqsud Shayxzoda ijodiy balog'atidan dalolat beruvchi asarlardan biri "Toshkentnoma" dostonidir. Adabiy jamoatchilik o'z vaqtida bu dostonni shoirning adabiyotimizning yirik ijodiy muvaffaqiyati sifatida baholadi. Chindan ham, "Toshkentnoma" Shayxzoda dostonlari ichida eng barkamoli bo'lib, unda shoir shaxsiyatining o'ziga xos qirralari ancha yorqin namoyon bo'lgan. Dostondagi o'ziga xoslik shundaki, asar yaxlit voqea asosiga qurilgan emas.

Shayxzoda ko'pqirrali iste'dod sohibi edi. U she'rlar va dostonlar bilan birga, juda yuksak badiiy quvvatga ega bo'lgan dramalar ham yaratdi. Shayxzoda umrining so'ngida yozishga kirishgan, lekin tugatib ulgurmagan "Beruniy" dramasini hisobga olmaganda ham, uning "Jaloliddin Manguberdi" va "Mirzo Ulug'bek" dramalari allaqachon xalqimizning badiiy mulkiga aylanib qoldi.





Shayxzoda asarlari qardosh xalqlar va xorijiy tillarga tarjima qilingan. Shoir tarjima jarayonida qardosh xalqlar va jahon adabiyoti namoyondalarining mahorat maktabidan ta'lim olib, ilg'or an'analarini o'zida mujassamlashtirgan she'rlar yozgan.

Shayxzoda 1967-yil 19-fevralda vafot etdi. U Toshkentning Forobiy qabristonida dafn etilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mamurova, F. I. (2021, May). ARTIST OF UZBEKISTAN MAKSUD SHEIKHZADE. In E-Conference Globe (pp. 176-178).
2. Mamurova, F. I., & ugli Abdubahabov, A. A. (2023). TWO FOLK POETS. "TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE", 1(3), 23-30.
3. Islomovna, M. F., & Abduvoxob o'g'li, A. A. (2023, January). Maqsud Shayxzodaning Hayoti Va Ijodi. In Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences (USA) (pp. 19-20).
4. Mamurova, F. I. (2021, May). ARTIST OF UZBEKISTAN MAKSUD SHEIKHZADE. In E-Conference Globe (pp. 176-178).
- 5.
6. slamovna, Mamurova Feruza. "MAQSUD SHAYKHZADEH-TWO FOLK DILBANDI." INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS. Vol. 1. No. 1. 2024.
7. Islamovna, M. F. (2024, January). MAQSUD SHAYKHZADEH-TWO FOLK DILBANDI. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS (Vol. 1, No. 1, pp. 189-192).
8. Islomovna, M. F. (2024). O'ZBEK ADABIYOTINING ATOQLI NAMOYANDALARIDAN BIRI MAQSUD SHAYXZODNING "JALOLIDDIN MANGUBERDI" ASARI. Yangi O'zbekistonda Tabiiy va Ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi, 2(1), 89-92.
9. Islamovna, M. F. (2024). THE CREATION OF MAQSUD SHAYKHZODA-AS A GOLDEN LEGACY. " XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2(1), 90-93.

